

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 4, 2017

*Jurnalning mazkur soni Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining 60 yilligiga bag`ishlanadi.*

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2017

## MUNDARIJA-СОДЕРЖАНИЕ-CONTENTS

<b>Soyib Raupov.</b> Harakatlar strategiyasi va ta’lim muammolari.....	7
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>	
<b>Shirinboy Olimov, Shahnoza Samiyeva.</b> O’zbek xalq og‘zaki ijodida ma’naviy-axloqiy tarbiya talqini	13
<b>Нодира Мусаева.</b> Системный подход при определении методов обучения и качества усвоения учебного материала.....	16
<b>Nasiba Azimova, Solicha Bekchanova.</b> Pedagogik texnologiya — ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi.....	20
<b>Anvar Sultonov, Shahnoza Quliyeva.</b> Oliy ta’lim o‘quv jarayonini modernizatsiyash.....	23
<b>Рухсора Кудратуллаева, Дилябар Мухамедова.</b> Психологические условия личностно-профессионального развития педагога в системе повышения квалификации.....	26
<b>Shavqiddin Adashboev.</b> Masofadan o‘qitish ta’lim texnologiyalari orqali oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish	29
<b>Akbar Djurayev.</b> Ta’lim tizimi sifatini boshqarishda rahbar faoliyatini izchil amalga oshirishga doir yondashuvlar.....	33
<b>Baxshillo Umarov.</b> Oliy o‘quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirishda guruh rahbarining faoliyati.....	37
<b>Sabohat Xolmatova.</b> O‘quvchilar intellektual-ma’naviy darajasining o’sishida kitobxonlik madaniyatining real imkoniyatlari va istiqbollarli.....	42
<b>Nigina Ismatova.</b> Oliy ta’lim muassasalarida amaliy (seminar) mashgulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.....	45
<b>Гулья Хабибова.</b> Роль и личность наставника-педагога в произведениях мыслителей Востока.....	48
<b>Феруз Гаффаров.</b> Средства обучения как неотъемлемая часть научно-методического обеспечения образования.....	52
<b>Manzura Ochilova, Gulnoz Tosheva.</b> O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	55
<b>Qobil Abdullayev.</b> Milliy meros mazmunida oilaviy munosabatlar tizimi.....	58
<b>Go’zal Yunusova.</b> Farzandlar tarbiyasida onalarning individual va yosh xususiyatlari to‘g‘risidagi psixologik bilimlarga ega bo‘lishlarining ahamiyati.....	61
<b>Nuriddin Axmadiyev, Zarifjon Arslonov.</b> Oiladagi ma’naviy muhit va ota – onaning bolaga axloqiy tarbiyasidagi o‘rni.....	65
<b>Umida Fayziyeva, Akmal Nazarov, Umida Sayitova.</b> 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga pedagogik-psixologik tayyorligini aniqlashda psixologik testlarning ahamiyati.....	68
<b>Хуршида Юлбарсова.</b> Реализация эффективного процесса формирования и развития коммуникативной компетентности у будущего учителя-бакалавра.....	72
<b>Anvar Nusratov.</b> O‘qituvchi-pedagog kasbiy pozitsiyasi va uni shakllantirish omillari.....	76
<b>Bobomurod Jo‘rayev.</b> Pedagogik etikaning kategoriyalari va uning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni.....	79
<b>Иҳтиёр Курбанов.</b> Следствие развития креативности общества в основе творческих условий в сфере образования.....	83
<b>Наталья Милорадова.</b> Общетеоретические подходы к периодизации профессионального становления личности.....	86
<b>Наталья Твердохлебова.</b> Анализ компонентов деятельности правоохранителей, подлежащих трансформации в процессе их профессиональной самореализации.....	94
<b>Laziz Olimov, Nodir Jumayev.</b> Individual tafovutlar muammosining psixologik talqini.....	100
<b>Xurshida Rajabova, Dilmurod Safarov, Elbek Do’sanov.</b> Ta’lim muassasasi rahbarining pedagog xodimlar bilan muomalasida ularning xulq-atvoriga psixologik ta’sir qilish jihatlari.....	105
<b>Наталья Якунина.</b> Смысложизненная концепция мужчин-преступников зрелого возраста, отбывающих наказание в исправительных учреждениях.....	112
<b>Nozima Mullaboyeva.</b> O’smirlarda tavakkalchilikni tadqiq etish muammolari.....	117
<b>Dilbar Rahmonova, Nargiza Bahriyeva.</b> O’smir o‘quvchilar orasida ijobiy muloqotni yuzaga keltirish va shakllantirish masalalari.....	120
<b>Erkin Eshov.</b> Milliy g‘oya, milliy mafkura – milliy ruhiyat timsoli.....	123
<b>Umar Ro’ziyev.</b> Yoshlarni Vatan mudofaasiga tayyorlash tizimi.....	126
<b>G‘ulom Boqiyev.</b> Oliy hamda malaka oshirish ta’lim turlari orasida uzviylikni ta’minlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	129



**Anvar SULTONOV**

Oliy va o'rta maxsys ta'lism vazirligi  
Bosh ilmiy metodik markazi katta ilmiy xodim-izlanuvchisi



**Shahnoza QULIYEVA**

dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

## **OLIY TA'LIM O`QUV JARAYONINI MODERNIZATSİYALASH**

*Maqolada o`qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatlari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, ta'lism tizimi faoliyatini tubdan yangi shakllarda barpo qilish uchun mamlakatdagi ta'lism muassasasi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga asoslangan ta'lism rivojlanishining strategiyasini loyihalashtirishga, ta'lism xizmati bozori haqida ma'lumot berilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** o`qituvchi, innovatsion faoliyat, ta'lism tizimi, ta'lism muassasasi, oliy ta'lism, modernizatsiya, ta'lism xizmati bozori.

*В статье размышаются о важных социальных и профессиональных качествах подготовки к инновационной деятельности учителя. А также дается сведения о рынке сервиса образования, проектирование стратегий развития образования основанная на социально-экономических свойствах страны для построения в новой форме деятельности системы образования.*

**Опорные понятия:** преподаватель, инновационная деятельность, система образования, образовательное учреждение, высшее образование, модернизация, рынок образовательного сервиса.

*In article is reflected the importance of social and professional innovative qualities in teaching activity. Moreover, it is given the information on trade services to design the learning strategies for development of the country's socio-economic projects to form a new method of an activity in education system.*

**Supporting concepts:** teacher, innovative activity, education system, educational institution, higher education, modernization, the market of training service.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri ta'lism tizimida mavjud gorizontal va vertikal munosabatlarni tubdan o'zgarishiga olib keldi. Ta'lism sohasida bozor munosabatlarini joriy etish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tasvirlovchi "ta'lism xizmati bozori", "raqobatbardoshlik", "mijoz" degan tushunchalar paydo bo'ldi. Ayni paytda, ta'limga, tashkiliy, iqtisodiy, pedagogik, uslubiy va texnologik qayta jihozlashga yangi yondashuvlar talab qilinmoqda. Shuning uchun ta'lism tizimi faoliyatini tubdan yangi shakllarda barpo qilish uchun mamlakatdagi ta'lism muassasasi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga asoslangan ta'lism rivojlanishining strategiyasini loyihalashtirishga, ta'lism xizmati bozorining dinamikasiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Ushbu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri ilmiy va innovatsion yondashuvga asoslangan an'anaviy va global tendensiyalar eng yaxshi tajribalar hisoblanadi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishiшимиз, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlаримиз ва rejalarimizning samarali taqdiri, avvalambor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongли, tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq" [1] — deya ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ijtimoiy sohaga, xususan, ta'lism, kadrlar tayyorlash sohasiga katta e'tibor qaratilib, uzlucksiz ta'lism tizimda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida ta'lism tizimini individual komponentlarini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi yoki bosqichdagi o'quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion jarayonlarni modellashtirish, innovatsion faoliyat uchun o'qituvchilar tayyorlash zarur. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g‘risida”gi PF-4732 sonli Farmonining qabul qilinishi shu boradagi ustuvor yo`nalishlardan hisoblanadi. Ushbu farmonning mazmunidan kelib chiqqan holda texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo`yicha so`nggi yutuqlarni o‘rganish va tahlil etish asosida ta’lim tizimini modernizatsiyalash, oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishning muhim yo`nalishlari, o‘quv-uslubiy jarayonga innovatsiyalarni joriy etish, pedagoglarni zamonaviy bilim va amaliy ko`nikmalar bilan qurollantirish, ta’lim sifatini ta’minlashga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni ta’lim amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to`g‘risida”gi 25-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2010-yil 17-apreldagi Hay‘at majlisida “Oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish to`g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to`g‘risida”gi PQ-1533 sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g‘risida”gi Qarori shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori uzuksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta’lim tizimi ishtiokini kengaytirish yo`lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir. Albatta, oliy ta’lim muassasasini modernizatsiyalashning asosiy mexanizmi o‘qitish sifati va ta’lim xizmatlari sifatiga bog‘liq. Iste’molchiga (ta’lim oluvchiga) ko`rsatilgan sifatli ta’lim xizmatigina uning ijobjiy o‘rnini shakllantiradi. Oliy ta’lim muassasasini samarali boshqarish va ijobjiy rivojlantirish ta’lim xizmatida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvni talab etadi.

Innovatsion ilmiy-pedagogik nazariyalar tahlili ta’limda innovatsion jarayonlarning quyidagi xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- nisbiy, innovatsiyaning davriy takrorlanishi, innovatsiyalarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlari;
- innovatsiyaning amaliyotda nazariyaga nisbatan ustuvorligi va nazariy asosga tayangan holda paydo bo`lishi;
- dunyoning ilmiy holatdagi ta’lim o‘zgarishlarida innovatsiyalarning shartliligi;
- ta’limda yangilik yaratuvchiga har doim ilmiy tafakkur bilan kundalik shug‘ullanuvchi va shu sababli uning ta’sirini boshdan o`tkazgan o‘qituvchi hisoblanishi;
- innovatsiyalarning “milliy xarakteri” va hokazo.

Ta’lim jarayonining “innovatsion” texnologiyaligi ta’lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta’minlaydi, balki unda kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam beradi. Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonining texnologiyasi uchta asosiy maqsadlarni hal qiladi. Bular:

- davlat manfaatlariiga mos holda, ta’lim oluvchini bo`lajak mutaxassis sifatida tayyorlaydi;
- ta’lim oluvchini jamiyat a’zosi sifatida shakllantirib, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni, me’yorlarni anglagan jamiyat manfaatlari bilan hamohang faoliyat ko`rsatuvchi kadrni tayyorlaydi;
- ta’lim oluvchini faol, tashabbuskor, mantiqan fikrlovchi individ sifatida rivojlantiradi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatlari, nafaqat ta’lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog‘liqdir. Kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli o‘qituvchilarning malakalari va kasbiy sifatlari zamonaviy oliy ta’limning asosiy real talablaridandir. Innovator-pedagoglar bugungi kun oliy ta’limining talabi bo‘lib, kasbiy cho’qqilarga erishish uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ta’limni chuqurlashtirishi zarur. Fakultetlarda professor-o‘qituvchilar innovatsion faoliyatini keng yoyish, yosh o‘qituvchilarga o‘rgatish, interfaol o‘qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishlari zarur. Natijada o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish, kasbiga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartirish, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini transformatsiya qilish, ya’ni boshqalarga o‘rgatish hamda o‘qituvchilarda kasbiy funktsiyalari to`g‘risidagi tor tushunchalarning o‘zgarishiga olib keladi.

Oliy ta’lim muassasalari resurslari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy (byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan olinadigan) resurslar;

- moddiy texnik baza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun bo‘lgan resurslar;
- kompyuter texnologiyalarining texnikaviy, matematik va dasturiy ta‘minoti;
- axborot bazasi (darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazma materiallari, jihozlar va hk.)

O‘quv-tarbiya jarayonining sanab o‘tilgan komponentlari kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ularning sifati va raqobatbardoshligi ayrim olingan har bir komponentning va umumiylarning rivojlantirish darajasiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, quyidagi savol yuzaga keladi: o‘quv-tarbiya jarayoni komponentlariga qanday talablar qo‘yilishi kerak?

Bu jarayonga o‘z navbatida ko‘pgina muhim omillarning joriy etilishi ta’sir etadi:

- o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash va uning muhitini;
- o‘qituvchilarining ruhiy-pedagogik tayyorgarligi;
- kasbiy ma’lumot manbai sifatida chet tillarini bilishi;
- fanni chuqur bilish, kasbiy vakolatlilik va iqtidorligi;
- ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlari yangi metodik va bilimlar manbalari egallaganligi;
- o‘z ishini takomillashtirishga muntazam intilishi;
- uzlusiz ta’lim tizimi me’yoriy hujjatlarini yaxshi bilishi;
- kompyuter texnologiyasini egallagan bo‘lishi;
- axborot bazasi va resurslar imkonlarini tahlil qila olishi.

Tarbiyalashning ta’limdagisi sifatiga ta’siri o‘qituvchining madaniyati va ma’naviyati, uning shaxsiy xulq-atvori va obro’siga, vatanparvarlik va burchni his etishiga va xususiyatlari uchun bog‘liq. Ta’lim oluvchilardan esa, yuqori madaniyat, ma’naviyat va jahon miqyosida fikrlashni shakllantirish uchun o‘qituvchi keng gu-manitar va insonparvar tayyorgarlikka, shuningdek, o‘quv-tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim muassasasini rivojlantirish sifat rejasini ishlab chiqishda o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bilan bog‘liq yo‘nalishlariga e’tibor berish lozim. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘qituvchi kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlarini yaxshilash;
- laboratoriya va amaliy ishlari uchun moddiy-texnika bazasini mukammal ta’minlanishiga erishish;
- ma’lumotlar bazasini rivojlantirish, yangilab va to‘ldirib borish;
- o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zarbo‘l munosabatlarda manaviy-ruhiy muhitni yaxshilash;
- ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikma va malakasini obyektiv nazorat qilish va baholash tizimini rivojlantirish;
- tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasasini boshqarishning muhim vositasi bo‘lib, o‘quv-tarbiya jarayonini ta’lim xizmatini amalga oshiruvchilar va iste’molchilar tomonidan o‘z-o‘zini nazorat qilish hisoblanadi. Uning asosida o‘quv-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi savollar majmui bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘z-o‘zini nazorat natijasini hisobga olgan holda rahbar jamoa tashkilotlarining vakillari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasini rivojlantirish sifat rejasini ishlab chiqadi va uni bajarishni tashkil qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagisi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Xalq so‘zi, 2011-yil 20-may, № 100 (5267).
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqibili va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. 302 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-apreldagi 2909-sonli qarori.
4. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностно ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Россия, Екатеринбург, 1999. – 244 с.
5. Ильина И.А. Обеспечение качества образовательного процесса в ВУЗе. – Москва, “Экономика”, 2014. Стр. – 160-162.



Дилбар МУХАМЕДОВА

Доцент Национального университета Узбекистана  
им. М. Улугбека, доктор психологических наук



Рухсора КУДРАТУЛЛАЕВА

Доцент Национального университета Узбекистана  
им. М.Улугбека, к

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЛИЧНОСТНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ**

*Maqolada malaka oshirish tizimida pedagogning shaxsiy-kasbiy kompetentligini uni shaxsiy-kasbiy rivojlantirishni takomillashtirish yo`li shakllantirish muhimligi ochib berilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** shaxsiy-kasbiy kompetentlik, shaxsiy-kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, ahamiyatli kasbiy sisatlar, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy faoliyat, psixologik komponentlar, kasbiy rivojlanish.

В статье раскрывается о важности формирования личностно-профессиональной компетентности педагога в ходе повышения квалификации, путем совершенствования личностно-профессионального развития.

**Опорные слова:** личностно-профессиональная компетентность, личностно-профессиональное развитие, повышение квалификаций, профессионально-значимые качества, психолого-педагогические условия, профессиональная деятельность, психологические компоненты, профессиональное развитие.

*In article is revealed the importance of forming teacher's personal and professional competence through the trainings to improve their personal and professional development.*

**Supporting concepts:** the personal and professional competence, personal and professional development, trainings, professionally significant qualities, psychological and pedagogical conditions, professional activity, psychological components, professional development.

Происходящие существенные изменения в системе образования нашей республики вызывают необходимость создания таких условий, при которых происходит наиболее полное раскрепощение творческих возможностей педагога, формирование его профессионально-значимых качеств, компетентная оценка личностных свойств и осознанное личностно-профессиональное развитие.

Сложившаяся ситуация в значительной мере по-новому определила постановку проблемы повышения квалификации педагогических кадров, при этом особую актуальность приобрели вопросы поиска инновационных форм и методов, оптимизирующих их личностно-профессиональное развитие.

Между тем изучение проблемы личностно-профессионального развития педагога в науке (А.А. Бодалев, А.А. Деркач, Л.М. Митина, Л.П. Квашко, М.И. Лукьянова и др.) и на практике показало, что многих педагогов характеризует недостаточный уровень потребности в самоанализе, самодиагностике и самооценке собственной профессиональной деятельности и ее результатов, отсутствует внутренняя мотивация к саморазвитию, самосовершенствованию.

Среди педагогов имеет место недопонимание того, что именно их уровень личностно-профессионального развития — это путь к творчеству, самовыражению, становлению неповторимого индивидуально-творческого стиля собственной профессиональной деятельности.

Таким образом, можно констатировать, что личностно-профессиональное развитие педагога в системе повышения квалификации как проблема педагогической психологии пока еще изучена недостаточно.